

**“O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan
maqsadli ajratiladigan mablag‘i hisobidan ipoteka krediti berish haqida
KREDIT SHARTNOMASI**

20 __ yil “__” _____ № _____ shahri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki (keyingi o‘rinlarda – «Bank» deb yuritiladi) nomidan 20__ yil “__” _____dagi _____ - sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi _____ bank xizmatlari ofisi (bank xizmatlari markazi) boshqaruvchisi (boshlig‘i) bir tarafdin, jismoniy shaxs _____ (__. __.20__ da tug‘ilgan, pasport yoki ID-karta _____, JSHSHIR _____), (keyingi o‘rinlarda – Qarz oluvchi), ikkinchi tarafdin, va jismoniy shaxs _____ (__. __.20__ da tug‘ilgan, pasport yoki ID-karta _____, JSHSHIR _____), (keyingi o‘rinlarda – Birgalikda qarzidor), uchinchi tarafdin, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdik.

1-§. Shartnoma predmeti

1. Bank mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq Qarzidorga/mijozga _____ (toli`q manzili) da joylashgan umumiy maydoni _____ kv. metr bo‘lgan _____ xonadan iborat ikkilamchi bozordagi uy-joyini (kvartirani) (kadastr raqami: _____) 20__ yil “__” _____dagi _____ - son oldi-sotdi shartnomasiga asosan sotib olish uchun _____ (so‘z bilan yozing) so‘m miqdorida ipoteka krediti ajratish majburiyatini oladi, Qarzidor/mijoz (birgalikda qarzidor) esa o‘z navbatida olingan kredit mablag‘ini belgilangan muddatda qaytarish va kredit mablag‘idan foydalanganligi uchun foiz to‘lash majburiyatini oladi.

2. Kreditdan foydalanish jarayonida Qarzidor/mijoz (birgalikda qarzidor) kreditni qaytarishlilik, to‘lovlilik, muddatlilik va ta‘minlanganligi kabi kredit berish tamoyillariga rioya qilishni o‘z zimmasiga oladi.

2-§. Qarzdorning/mijozning (birgalikda qarzdorning) tasdiqlari

3. Qarzidor/mijoz (birgalikda qarzidor) quyidagilarni tasdiqlaydi:

- a) Bankka taqdim etilgan/etiladigan hamma hujjatlar va ma‘lumotlar haqiqiylic, qonuniylic va ishonchlilikini;
- b) o‘ziga nisbatan ma‘muriy yoki jinoyiy ish qo‘zg‘atilmaganligini;
- d) mazkur Shartnoma aldash, zo‘rlilik, qo‘rqitish yoki og‘ir holat yuz berishi ta‘sirida tuzilmaganligini;
- e) mazkur Shartnomani tuzish va uning shartlarini bajarishga layoqatlilikini;
- f) mazkur Shartnomaning matni bilan tanishib chiqqanligini, barcha shartlari, shu jumladan huquq va majburiyatlari, kreditni qaytarish tartibi, nazarda tutilgan to‘lovlar miqdori, mazkur to‘lovlarni amalga oshirish tartibi ikki tarafning roziligi asosida kelishilganini va ularning manfaatlari va huquqlarini cheklamaganligini.

4. Qarzidor/mijoz (birgalikda qarzidor) ushbu Shartnoma hamda garov (ipoteka) shartnomasi bo‘yicha (shu jumladan mazkur shartnomalar shartlaridan kelib chiqadigan) Bankga tegishli huquq (talab qilish huquqi) “O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati oldida Bankning majburiyatlari ta‘minoti sifatida taqdim qilinishiga rozilik bildiradi.

5. Bankning huquqlari bitim asosida “O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatiga o‘tishi uchun Qarzdorning/mijozning (birgalikda qarzdorning) roziligi talab qilinmaydi.

3-§. Kredit ajratish tartibi

6. Mazkur Shartnoma bo‘yicha kreditdan foydalanish muddati _____ oyni tashkil qiladi.

7. Imtiyozli davr _____ oyni tashkil etadi va mazkur Shartnoma bo‘yicha kredit berilgan kundan boshlab hisoblanadi.

8. Bankning kredit ajratish bo‘yicha majburiyati Qarzidor/mijoz (birgalikda qarzidor) tomonidan quyidagi harakatlar bajarilgandan so‘ng vujudga keladi:

a) qarzdorning/mijozning o'z mablag'ini Bankda Qarzdor/mijoz nomiga ochilgan depozit hisobvarag'iga o'tkazish (ushbu mablag' sotib olinayotgan uy-joy (kvartira) qiymatining ____ foizini, ya'ni _____ (so'z bilan yozing) so'm ____ tiyinni taskil etadi);

b) uy-joy (kvartira) oldi-sotdi shartnomasining notarial tasdiqlangan va kadastr idorasi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan asl nusxasini taqdim qilish;

d) Qarzdorning/mijozning uy-joyga (kvartiraga) egalik huquqini tasdiqlovchi kadastr hujjatining asl nusxasini taqdim qilish;

e) kredit bo'yicha ta'minot hujjatini O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan, kadastr idorasi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kredit mablag'i hisobiga sotib olinadigan uy-joyning (kvartiraning) garov (ipoteka) shartnomasi asl nusxasini taqdim qilish. Bank tomonidan kredit bo'yicha qo'shimcha ta'minot talab qilinganida O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda rasmiylashtirilgan ta'minot shartnomasining asl nusxasini taqdim qilish.

9. Bank Qarzdordan/mijozdan (birgalikda qarzdordan) to'lov qobiliyati va ipoteka krediti ajratishga oid boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilishi mumkin.

10. Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) mazkur Shartnomaning 8-bandida nazarda tutilgan majburiyatlar lozim darajada bajarilganidan so'ng Qarzdorning/mijozning to'lov topshiriqnomasiga asosan Bank tomonidan kredit mablag'i _____ (____) bank ish kuni ichida quruvchi/sotuvchi hisobvarag'iga naqd pulsiz shaklda o'tkazib beriladi.

11. Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) tomonidan taqdim qilingan hujjatlarda kamchiliklar aniqlangan holatlarda Bank mazkur kamchiliklar to'liq bartaraf etilmagunga qadar kreditlashni to'xtatib turishga haqli hisoblanadi.

12. Kredit ajratilishining haqiqiy sanasi Qarzdorning/mijozning to'lov topshiriqnomasiga asosan Bank tomonidan quruvchining/sotuvchining hisobvarag'iga pul mablag'ini o'tkazib berish (ko'chirish) sanasi hisoblanadi.

4-§. Kreditdan foydalanganlik uchun foiz hisoblash

13. Kreditning foiz stavkasi yillik hisob asosida _____ % miqdorida belgilandi.

14. Mazkur Shartnoma bo'yicha hisoblangan foiz kredit valyutasida to'lanadi.

15. Kreditdan foydalanganlik uchun foiz kredit mablag'i quruvchining/sotuvchining hisobvarag'iga o'tkazib berilgan kundan boshlab hisoblanadi va Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) tomonidan Shartnoma shartlari va ushbu Shartnomaning ilovasi sifatida uning ajralmas qismi hisoblangan "Ipoteka kreditini qaytarish va foiz to'lovi jadvaji"ga muvofiq to'lab boriladi.

16. Kredit foizi har kuni yillik bazaviy davr – 365 kun hisobidan kelib chiqqan holda asosiy qarzning qoldig'i bo'yicha hisoblanadi.

17. Kredit mablag'i ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda, muddati o'tkazilgan qarzdorlik uchun Bank tomonidan kredit foizi ushbu Shartnomada o'rnatilgan foiz stavkasidan 1,5 marta oshirilgan stavkada, ya'ni _____ % miqdorida foiz hisoblanadi.

18. Qarzdorning/mijozning tashabbusi bilan mazkur Shartnoma shartlari qayta ko'rib chiqilgan taqdirda, Bank tariflariga muvofiq bank foydasiga vositachilik haqi undiriladi. Shartnoma shartlari vositachilik haqi to'langanidan keyin qayta ko'rib chiqiladi.

5-§. Kreditni to'lash muddati va tartibi

19. Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni ushbu Shartnomaning ilovasi sifatida uning ajralmas qismi hisoblangan "Ipoteka kreditini qaytarish va foiz to'lovi jadvaji"da belgilangan miqdor va muddatlarda amalga oshiradi.

20. Kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizga oid barcha to'lovlarni Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) kredit valyutasida amalga oshiradi.

21. Kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni to'lash taraflarning o'zaro kelishuviga muvofiq _____ usulida amalga oshiriladi.

(*differensial yoki annuitet*)

22. Kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizga oid to'lovlarni amalga oshirish muddati

dam olish yoki ishlanmaydigan bayram kuniga to'g'ri kelsa, u keyingi bank ish kuniga o'tkaziladi. Bunda kredit bo'yicha foiz miqdori mos ravishda qayta hisoblab chiqiladi.

23. Agar Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) tomonidan kredit bo'yicha amalga oshirilgan to'lov qiymati ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun etarli bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 248-moddasiga muvofiq, Qarzdorning /mijozning qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

- a) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- b) joriy davr uchun hisoblangan foiz va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- d) jarima va penya;
- e) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

24. Qarzdordan/mijozdan (birgalikda qarzdordan) kreditning joriy to'lovi uchun ushbu Shartnomaning ilovasi sifatida uning ajralmas qismi hisoblangan "Ipoteka kreditini qaytarish va foiz to'lovi jadvaji"da belgilanganga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa, u holda Bank kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini Qarzdorning/mijozning kredit bo'yicha asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltiradi.

Qarzni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so'ng qarz bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddati o'zgarganda, shuningdek Qarzdor/mijoz tomonidan qarz qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan qarz bo'yicha to'lovni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq qarz to'lovlarining qiymati o'zgarganda Bank qarzni qaytarish jadvalini Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning og'zaki yoki yozma murojaatiga asosan yangidan rasmiylashtiradi. Bunda, qarzni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo'lgan qarzni qaytarish jadvali o'z kuchini yo'qotadi.

25. Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) istalgan vaqtda, jarima to'lamasdan, kreditni muddatidan oldin to'liq so'ndirishi mumkin.

Kreditni muddatidan oldin to'liq so'ndirish ushbu kredit bo'yicha hisoblangan foizni va kreditni to'liq so'ndirish sanasiga hisoblangan boshqa to'lovlarni to'liq qoplash bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

26. Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) Bankning birinchi talabiga binoan mazkur Shartnoma hamda unga tegishli hujjatlar ijrosini amalga oshirish bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplaydi.

27. Kredit va unga hisoblangan foizning to'lanishi Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) tomonidan quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- a) bank xizmatlari ofisi (vakolatli bank xizmatlari markazi) kassasiga naqd pul topshirish orqali;
- b) bank kartasi hisobvarag'iga kelib tushgan mablag' hisobidan;
- d) boshqa manbalar hisobidan mablag'ni naqd pulsiz shaklda o'tkazish yo'li bilan.

28. Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Bank vujudga kelgan qarzdorlikni Qarzdorning/mijozning (birgalikda qarzdorning) O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida ochilgan bank hisobvaraqlaridan va/yoki bank omonatlaridan (shu jumladan, bank kartalaridan) tegishli pul mablag'ini akseptsiz yechib olish orqali undiradi.

6-§. Kreditning qaytarilishini ta'minlash

29. Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash maqsadida mazkur Shartnoma imzolangan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kun muddat ichida kredit qiymatining kamida 125 foizi miqdorida (Bank ichki normativ hujjatlari va kreditni moliyalashtirish shartlariga muvofiq belgilanadi) ta'minot taqdim qiladi va rasmiylashtiradi, shu jumladan:

- a) mazkur Shartnomaga muvofiq ajratilgan kredit hisobiga ikkilamchi bozordan sotib olingan _____ (toliq manzili) da joylashgan umumiy maydoni _____ kv. metr bo'lgan _____ xonadan iborat uy-joy (kvartirani);
- b) _____

30. Qarzdor/mijoz Bank bilan notarial tartibda tasdiqlangan garov (ipoteka) shartnomasi tuzadi va uni kadastr idorasida davlat ro'yxatidan o'tkazadi.

31. Qarzdor/mijoz kredit ta'minoti sifatida taqdim qilingan uy-joyi (kvartirani) yo'qatish va shikastlanish xavfidan butun kredit muddati davomida sug'urta qilinish majburiyatini oladi. Sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi Bank hisoblanadi.

32. Kreditning qaytarilishini ta'minlash uchun barcha hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha har qanday xarajadni Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) o'z zimmasiga oladi.

33. Garovning aniq shartlari O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilgan garov shartnomasida belgilanadi.

34. Kredit ta'minoti sifatida taqdim qilingan uy-joyning (kvartiraning) qadr-qiymati va likvidligi yoqolganda, bozor bahosi sezilarli pasayganda, Qarzdorda/mijozda (birgalikda qarzdorda) ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik xavfini orttiruvchi boshqa omillar yuzaga kelganda Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) Bankni qanoatlantiradigan qo'shimcha ta'minotni taqdim etish majburiyatini oladi.

35. Qarzdorning/mijozning (birgalikda qarzdorning) majburiyatlarini bajarish uchun bir nechta ta'minotlar mavjud bo'lishi bir-biriga zid hisoblanmaydi, majburiyatlarni bajarishning har bir usuli mustaqil va bir-biriga bog'liq bo'lmaydi. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullari bo'yicha undirish zarurati tug'ilganda, tanlash huquqi Bankda qoladi. Bank o'z xohishiga ko'ra majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashning har qanday usuli yoki barcha usullari bo'yicha talablar qo'yishi mumkin.

36. Agar mazkur Shartnomaning amal qilish muddati davomida garovga qo'yilgan uy-joyning (kvartiraning) garov qiymati garov mulkining nobud bo'lishi, shikastlanishi yoki talon-taroj qilinishi natijasida, shuningdek Bankka bog'liq bo'lmagan boshqa sababga ko'ra Qarzdorning/mijozning (birgalikda qarzdorning) majburiyatlaridan kam qiymatga ega bo'lsa, Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) Bankning tegishli talabnomasini olgan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni ichida garov bilan ta'minlanmagan kredit qiymatini muddatidan oldin qoplashga yoki garov mulkini almashtirish yoxud boshqa ta'minot taqdim etishga majburdir.

37. Agar Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) mazkur Shartnomada belgilangan shartlar va muddatlarda kreditning asosiy qarzi va unga hisoblangan foiz to'lovlarini amalga oshira olmaydigan vaziyat yuzaga kelsa, amaldagi qonunchilik, mazkur Shartnoma va garov (ipoteka) shartnomasiga muvofiq Bank garov va/yoki uning qismlariga undiruv qaratish bo'yicha shartsiz va so'zsiz huquqqa ega bo'ladi.

7-§. Taraflarning huquq va majburiyatlari

38. Bank quyidagi huquqlarga ega:

a) Qarzdor/mijoz kreditdan ushbu Shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran 1 (bir) oy ichida foydalanmagan taqdirda, Qarzdorni/mijozni yozma ravishda xabardor etish orqali, ushbu Shartnomani bir taraflama bekor qilish;

b) ushbu Shartnoma imzolangan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kun muddat ichida Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) tomonidan mazkur Shartnomaning 8-bandida nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda, Shartnoma imzolanganidan keyin kreditni qaytarishga ta'sir qiladigan ishonchsiz va soxta ma'lumotlar taqdim qilinganligi aniqlanganda kredit berishni rad etish, Qarzdorni/mijozni yozma ravishda xabardor etish orqali, Shartnomani bir taraflama bekor qilish;

d) Qarzdor/mijoz ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida asosiy qarzi va/yoki foiz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik paydo bo'lsa, Qarzdorning/mijozning (Birgalikda qarzdorning) O'zbekiston tijorat banklarida ochilgan bank hisobvaraqlaridan (bank omonatlaridan), shu jumladan bank kartalaridan mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan pul mablag'ini so'zsiz va akseptsiz yechib olish/undirish/hisobdan chiqarish (bunda Bank tomonidan mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Qarzdorga/mijozga (Birgalikda qarzdorga) uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sababga asosan Bank foydasiga undirilganligi ko'rsatilgan holda xabarnoma yuboriladi);

e) ushbu Shartnoma bo'yicha kreditning asosiy qarzini qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to'lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan Qarzdorga/mijozga (birgalikda qarzdorga) talabnoma yuborish;

f) Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan talabnomada belgilangan

muddatda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, sudga da'vo bilan murojaat etish;

g) mazkur Shartnomaning amal qilish muddati davomida garovga qo'yilgan uy-joyning (kvartiraning) garov qiymati garov mulkining nobud bo'lishi, shikastlanishi yoki talon-taroj qilinishi natijasida, shuningdek Bankka bog'liq bo'lmagan boshqa sababga ko'ra Qarzdorning/mijozning (birgalikda qarzdorning) majburiyatlaridan kam qiymatga ega bo'lsa, Qarzdordan/mijozdan (birgalikda qarzdordan) garov bilan ta'minlanmagan kredit qiymatini muddatidan oldin qaytarishni, garov mulkini almashtirishni yoki qo'shimcha ta'minot taqdim etishni talab qilish;

h) mazkur Shartnomada va amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda, Qarzdordan/mijozdan (birgalikda qarzdordan) kreditning hammasini yoki uning bir qismini muddatidan oldin qaytarishni talab qilish yoki sud tartibida muddatidan oldin undirish;

i) garov (ipoteka) shartnomasida belgilangan tartibda va amaldagi qonunchilikka asosan qarzdorlikni undirishni kredit bo'yicha ta'minotga qaratish;

j) garov mulki bo'yicha Garov reestriga yozuvlar kiritish va garov mulkiga nisbatan taqiq qo'yish;

k) Qarzdordan/mijozdan (birgalikda qarzdordan) garov mulkini kreditning butun davri uchun yuqotish (nobud bo'lish) va shikastlanish xavfidan o'z mablag'i hisobidan sug'urta qilishni talab qilish;

l) joyiga chiqqan holda garov mulkining holati va saqlanishi yuzasidan tekshiruvni (monitoringni) amalga oshirish (bu kabi tekshirishlarni o'tkazish davriyligi Bank tomonidan belgilanadi);

m) Qarzdor/mijoz tomonidan, ushbu Shartnoma doirasida, korrupsion harakatlar bevosita yoki bilvosita sodir etilganligi aniqlansa, mazkur Shartnomani bir taraflama bekor qilish;

n) Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) mazkur Shartnoma bo'yicha kredit qarzdorligini to'lash bo'yicha o'z majburiyatlarini ushbu Shartnomaning ilovasi sifatida uning ajralmas qismi hisoblangan "Ipoteka kreditini qaytarish va foiz to'lovi jadvali"da belgilangan muddatlarda lozim darajada bajarmaganligi oqibatida yuzaga kelgan qarzdorlik u paydo bo'lgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun davom etganda, buni kreditni muddatidan oldin to'liq undirish holati deb hisoblash;

o) Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) ushbu bandning "e" kichik bandida qayd etilgan talabnomani, u yuborilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida lozim darajada bajarmasa, buni kreditni muddatidan oldin to'liq undirish holati deb hisoblash;

p) mazkur Shartnoma va O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

39. Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) quyidagi huquqlarga ega:

a) mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shartlar va miqdorda kredit olish;

b) o'z huquq va majburiyatlari haqida, shu jumladan kredit olish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to'liq axborot olish;

d) kredit mablag'i quruvchining/sotuvchining hisobvarag'iga o'tkazib berilguniga qadar kredit mablag'ini olishdan bepul voz kechish (bunda voz kechish kunigacha qilingan xarajat Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) zimmasida qoladi);

e) istalgan vaqtda, jarima to'lamasdan, kreditni muddatidan oldin to'liq so'ndirish (bunda kreditni muddatidan oldin to'liq so'ndirish ushbu kredit bo'yicha hisoblangan foizni va kreditni to'liq so'ndirish sanasiga hisoblangan boshqa to'lovlarni to'liq qoplash bilan bir vaqtda amalga oshiriladi).

40. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

a) Qarzdorni/mijozni (birgalikda qarzdorni) taraflarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi haqida xabardor qilish, shuningdek kredit berish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida ishonchli va to'liq axborotni taqdim qilish;

b) Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) tomonidan mazkur Shartnomaning 6-bandida qayd etilgan majburiyatlar to'liq bajarilgandan so'ng kredit mablag'ini ajratish;

d) mazkur Shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan bosh tortilgan taqdirda, ushbu kredit bo'yicha mablag' berishni to'xtatib qo'yish haqida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Qarzdorga/mijozga kredit berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan yozma xabarnoma yuborish;

e) ushbu Shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelganda Qarzdor/mijoz

zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida ushbu qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni davomida Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) bilan kelishilgan aloqa usulidan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanib, Qarzdorga/mijozga (birgalikda qarzdorga) muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida xabar berish;

f) Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) ushbu Shartnoma bo'yicha barcha to'lov majburiyatini to'liq bajargan sanadan boshlab 3 (uch) bank ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur kredit bo'yicha garov mulkini taqiqdan chiqarish hamda garov mulkiga nisbatan Bankning huquqlari haqidagi yozuvni Garov reestridan o'chirish.

41. Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

a) mazkur Shartnoma imzolangan paytdan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun muddat ichida quyidagi hujjatlarni rasmiylashtirish va Bankka taqdim qilish:

qarzdorning/mijozning o'z mablag'i Bankda Qarzdor/mijoz nomiga ochilgan depozit hisobvarag'iga o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat;

uy-joy (kvartira) oldi-sotdi shartnomasining notarial tasdiqlangan va kadastr idorasi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan asl nusxasi;

Qarzdorning/mijozning uy-joyga (kvartiraga) egalik huquqini tasdiqlovchi kadastr hujjatining asl nusxasi;

kredit bo'yicha ta'minotning O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan, kadastr idorasi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kredit mablag'i hisobiga sotib olinadigan uy-joyning (kvartiraning) garov (ipoteka) shartnomasi asl nusxasi;

b) Bankda depozit hisobvaraqa ochish va qarzdorning/mijozning o'z mablag'ini ushbu hisobvaraqda to'liq shakllantirish;

d) mazkur Shartnoma shartlari va "Kreditni qaytarish va foiz to'lovi jadvali"ga muvofiq kreditni belgilangan muddatlarda to'lash, Bank bilan o'z vaqtida hisob-kitobni amalga oshirish;

e) ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida asosiy qarz va/yoki foiz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik paydo bo'lsa, Bankka o'zining O'zbekiston tijorat banklarida ochilgan bank hisobvaraqlaridan (bank omonatlaridan), shu jumladan bank kartalaridan mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan pul mablag'ini so'zsiz va akseptsiz yechib olish/undirish/hisobdan chiqarish huquqini berish;

f) kredit ta'minoti sifatida taqdim qilingan uy-joyning (kvartiraning) qadr-qiymati va likvidligi yoqolganda, bozor bahosi sezilarli pasayganda, Qarzdorda/mijozda (birgalikda qarzdorda) ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik xavfini orttiruvchi boshqa omillar yuzaga kelganda Bankni qanoatlantiradigan qo'shimcha ta'minotni taqdim etish;

g) mazkur Shartnomaning amal qilish muddati davomida garovga qo'yilgan uy-joyning (kvartiraning) garov qiymati garov mulkining nobud bo'lishi, shikastlanishi yoki talon-taroj qilinishi natijasida, shuningdek Bankka bog'liq bo'lmagan boshqa sababga ko'ra Qarzdorning/mijozning (birgalikda qarzdorning) majburiyatlaridan kam qiymatga ega bo'lsa, garov bilan ta'minlanmagan kredit qiymatini muddatidan oldin qaytarish, garov mulkini almashtirish yoki qo'shimcha ta'minot taqdim etish;

h) Bank tomonidan talab qilingan to'lov qobiliyati, kreditni qaytarish ishonchligini tasdiqlovchi va kredit ajratish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim etish;

i) Bankning birinchi talabiga binoan mazkur Shartnoma va unga tegishli hujjatlar ijrosisini amalga oshirish bilan bog'liq barcha xarajatni qoplash;

j) Bank vakillariga muntazam ravishda o'tkaziladigan monitoring ishlariga qarshilik ko'rsatmaslik, kredit hisobiga sotib olingan va ushbu kredit ta'minoti sifatida garovga olingan uy-joyning (kvartiraning) holatini borib ko'rish imkoniyatini ta'minlash;

k) yashash joyi, ish joyi, telefon raqami, familiyasi yoki ismi va mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir qiladigan boshqa holatlarning o'zgarganligi haqida 3 (uch) bank kuni ichida Bankka ma'lumotnoma taqdim etish;

l) mazkur Shartnomaning amal qilish muddati davomida kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yilgan

uy-joy (kvartirani) lozim darajada asrash uchun, shu jumladan uni o'z vaqtida joriy ta'mirlashdan o'tkazish, undan oqilona foydalanish hamda uni boshqa shaxslarning qonunga xilof tajovuzlari va talablaridan himoya qilish uchun o'z hisobidan barcha zarur choralarni ko'rish;

m) mazkur Shartnomaning amal qilish muddati davomida kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yilgan uy-joyning (kvartiraning) nobud bo'lishi, shikastlanishi yoki talon-taroj qilinishiga olib keluvchi har qanday xavf-xatar, shuningdek Bankning garov ta'minoti bilan bog'liq huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday holat to'g'risida Bankni o'z vaqtida yozma shaklda xabardor qilish;

n) Bankning yozma rozilgisiz kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yilgan uy-joy (kvartira) konstruksiyalariga o'zgartirish kiritmaslik, ixtisoslashishini o'zgartirmaslik va rekonstruksiya ishlarini amalga oshirmaslik;

o) kredit hisobiga sotb olingan uy-joy (kvartirani) Qarzdor/mijoz va uning oila a'zolari yashashi uchun foydalanish (uni ijaraga berish, unga uchinchi shaxslarni ro'yxatga qo'yish faqat Bankning roziligi bilan amalga oshiriladi);

p) kredit hisobiga sotb olingan uy-joy (kvartirani) Bankni qoniqtiradigan shartlar asosida kreditlashning butun davri uchun nobud bo'lishi yoki shikastlanish xavfidan o'z mablag'i hisobidan sug'urta qildirish;

q) mazkur Shartnoma hamda O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar.

8-§. Muddati o'tgan qarzdorlik paydo bo'lganda Bankning Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirish tartibi

42. Mazkur Shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelgan hollarda Bank ushbu Shartnomada Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) bilan kelishilgan har qanday aloqa usulidan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalangan holda Qarzdor/mijoz zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida Qarzdorga/mijozga (birgalikda qarzdorga) muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida xabar berishi shart.

43. Bank qonunchilik talablarini hisobga olgan holda Qarzdorni/mijozni (birgalikda qarzdorni) ushbu Shartnoma bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlikni qaytarish majburiyatlari bajarilmaganligi holati, muddati, qiymati, tarkibi va oqibatlari haqida xabardor qilishi, Qarzdordan/mijozdan (birgalikda qarzdordan) muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelishi sabablari haqida so'rashi shart.

44. Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) Shartnoma bo'yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to'lash muddatlarini buzganda, Bank nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan talabnoma yuboradi.

Ushbu talabnoma quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

a) Bankning nomi va uni identifikatsiyalash uchun etarli ma'lumotlar;

b) talabnoma rasmiylashtirilgan sanaga Qarzdorning/mijozning (birgalikda qarzdorning) joriy qarzdorligi miqdori va tarkibi;

d) qarzni to'lash usullari;

e) talabnomada ko'rsatilgan muddatgacha Qarzdorning/mijozning (birgalikda qarzdorning) o'z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatlari;

f) nizoni sudgacha hal qilish usullari.

9-§. Taraflarning javibgarligi

45. Kredit mablag'i ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda, haqiqatda muddati o'tgan qarzdorlik uchun, mazkur Shartnomaning 17-bandiga ko'ra, o'rnatilgan foiz stavkasidan 1,5 marta oshirilgan stavkada foiz hisoblanadi.

Kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda foiz stavkasining oshishi holati to'g'risida Bank Qarzdorga/mijozga (birgalikda qarzdorga) xabar berish majburiyatini olmaydi.

46. Kredit bo'yicha hisoblangan foiz o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun Qarzdorga/mijozga (birgalikda qarzdorga) nisbatan, har bir muddati o'tgan kun uchun to'lov muddati o'tgan foiz qiymatidan 0,1%, lekin muddati o'tgan foiz qarzdorligining 50 foizidan oshmagan miqdorda, penya belgilanadi. Penya

to'lanishi Qarzdorni/mijozni (birgalikda qarzdorni) muddati o'tgan foiz qarzdorligini to'lashdan ozod qilmaydi.

47. Taraflar ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, ularga O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan boshqa javobgarlik choralari ham qo'llanishi mumkin.

10-§. Bildirishnomalar

48. Bank tomonidan Qarzdorga/mijozga (birgalikda qarzdorga) berilgan har qanday bildirishnoma (xat, talabnoma) Bank tomonidan quyidagi usullarning biridan foydalangan, lekin O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga zid bo'lmagan, holda yuborilganda ushbu bildirishnoma (xat, talabnoma) tegishli tarzda rasmiylashtirilgan va Qarzdorga/mijozga (birgalikda qarzdorga) etkazilgan deb hisoblanadi:

a) kuryer yoki pochta xizmati orqali;

b) Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) tomonidan arizada ko'rsatilgan elektron pochta orqali;

d) faks orqali;

e) mobil va boshqa telefon aloqa vositalari orqali [Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) tomonidan arizada ko'rsatilgan telefon raqamidan foydalangan holda], shu jumladan SMS-xabarnoma yuborish orqali.

49. Bank Qarzdorning/mijozning (birgalikda qarzdorning) aloqa ma'lumotlari va/yoki) rekvizitlari o'zgarganligi sababli uning Bank tomonidan yuborilgan xabarnomani olmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

11-§. Amaldagi qonunchilik va nizoni hal qilish tartibi

50. Mazkur Shartnoma normalari, shuningdek ulardan kelib chiqadigan taraflarning huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi va sharxlanadi.

51. Taraflar ushbu Shartnoma bo'yicha kelib chiqqan nizoni sudgacha hal qilish usullarini qo'llash, shu jumladan muzokara o'tkazish orqali bartaraf etishga haqli hisoblanadi.

52. Taraflar mazkur Shartnoma bilan bog'liq bo'lgan, muzokara yo'li bilan hal qilish mumkin bo'lmagan barcha nizolarni Bank (bank xizmatlari ofisi, vakolatli bank xizmatlari markazi) joylashgan joydagi tegishli sudda ko'rib chiqishga kelishib oldilar.

12-§. Fors-major holatlar

53. Ushbu Shartnomaga ko'ra qabul qilingan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taraf, agar bunga fors-major holat sabab bo'lganligini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi.

54. Fors-major holatlarga, ular oqibatida kelib chiqqan favqulodda, joriy sharoitda bartaraf etib bo'lmaydigan va oldindan kutilmagan vaziyatlar, agar ushbu vaziyatlar taraflarning mazkur Shartnomani bajarishga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, quyidagilar kiradi:

a) tabiiy hodisalar (zilzila, yong'in, ko'chki, dovul, suv toshqini, epidemiya, qurg'oqchilik, portlash);

b) ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (harbiy harakat, ish tashlash, ommaviy tartibsizliklar, qamal, moliyaviy sanksiyalar, shuningdek barcha darajadagi davlat organlarining qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan fors-major holat sifatida tan olingan va e'lon qilingan vaziyatlar).

55. Fors-major holat sodir bo'lishi oqibatida o'z majburiyatini bajarish imkoniyatiga ega bo'lmagan va javobgarlikdan ozod qilishni da'vo qiladigan taraf fors-major holat sodir bo'lganini ma'lum bo'lishi bilan ikkinchi va uchinchi taraflarni mazkur holat to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishi shart.

56. Javobgarlikdan ozod bo'lish uchun asos sifatida qabul qilinadigan fors-major holat u sodir bo'lgan vaqtdan boshlab yoki agar xabar o'z vaqtida berilmagan bo'lsa, xabar berilgan sanadan e'tiboran kuchga ega bo'ladi. Xabar berilmasligi, majburiyatni bajarmagan taraf zimmasiga ko'rilgan zararni qoplash yuzasidan javobgarlikni yuklaydi.

57. Fors-major holatning 6 oylik muddat davomida saqlanib turishi mazkur Shartnomani bekor qilish uchun asos bo'ladi.

13-§. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar

58. Taraflar shartnoma tuzish, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oldi.

59. Taraflar ushbu Shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydi.

60. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmagani, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmagani, taklif etilmagani, ularni berishga va'da qilinmagani, shuningdek, moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganini) kafolatlaydi.

61. Taraflar mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda korrupsiya harakatlarini bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi.

62. Qonunga xilof ravishda olingan daromadning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoki almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'i yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyati, manbai, turgan joyini, tasarruf etish va ko'chirish usulini, pul mablag'iga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqini yoki uning kimga qarashlilikini yashirishga yo'l qo'ymaydi.

63. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish holati bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qiladi.

64. Taraflar tovarlar, xizmatlar va ishlarni realizasiya qilish va o'tkazishda yoki ularning manfaatini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga nisbatan quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

a) korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish;

b) ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;

d) ularni faqat tarafning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish;

e) ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

65. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi.

66. Agar bir tomonga boshqa tomonning ushbu Shartnomaning 61-bandida belgilangan majburiyatlarning buzilishiga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qiladi va tegishli choralar ko'rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xabardor qilishni talab qiladi.

67. Bir tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tegishli choralar ko'rmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, birinchi taraf shartnomani bir tarafdama to'xtatib turish, bekor qilish hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

14-§. Sanksiyalar ro'yxatiga oid qo'shimcha shartlar

68. Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) bank hisobvarag'i bo'yicha bank operatsiyalarini amalga oshirishda Sanksiyalar ro'yxati bilan bog'liq cheklov va taqiqlarga qat'iy rioya qilinishini ta'minlaydi va kafolatlaydi. Mazkur Shartnoma imzolanishi bilan Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) tomonidan Sanksiyalar ro'yxati bilan bog'liq cheklov va taqiqlarga rioya qilinishi kafolatlangan hisoblanadi.

69. Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) Sanksiyalar ro'yxatiga kiritilgan shaxslar bilan, shuningdek ularning manfaatini ko'zlab ish yuritishi mumkin degan asosli taxmin mavjud bo'lgan har qanday shaxslar bilan kelishuv, bitim, shartnoma imzolamaydi.

70. Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) Sanksiyalar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarga yoki ularning manfaati uchun har qanday kelishuv, bitim, shartnoma bo'yicha to'lovlarni amalga oshirmaydi.

71. Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) Bankka taqdim etgan hujjat va ma'lumotlari yolg'on, ishonchsiz va/yoki noto'g'ri bo'lib chiqsa yoki ushbu paragrafda qayd etilgan shartlar Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) tomonidan bajarilmasa, Bank Qarzdorning/mijozning (birgalikda qarzdorning) topshirig'i asosida amalga oshirilgan bank operatsiyalari tufayli chiqib ketgan mablag'ning qaytarilishi, band solinishi, muzlatilishi, yo'qotilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

72. Qarzdorga/mijozga (birgalikda qarzdorga) Sanksiyalar ro'yxati asosida vakolatli organ, tashkilot yoki banklar tomonidan cheklov va taqiq choralari (pul mablag'iga band solinishi, to'lovning rad etilishi va boshqalar) qo'llanganligi uchun Bank javobgar emas va Sanksiyalar ro'yxati bilan bog'liq cheklov va taqiqlar tufayli ushbu Shartnoma bo'yicha Bank o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida Qarzdorga/mijozga (birgalikda qarzdorga) yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini olmaydi.

73. Bank Qarzdorning/mijozning (birgalikda qarzdorning) boshqa davlatlar qonun hujjatlari bilan cheklangan yoki taqiqlangan bank operatsiyalarini banklar va/yoki kontragentlar foydasiga amalga oshirmaslik huquqiga ega. Bunday holda, tashqi savdo shartnomalari yuzasidan amalga oshirilmagan bank operatsiyalari bo'yicha javobgarlikni Bank o'z zimmasiga olmaydi.

74. Qarzdorning/mijozning (birgalikda qarzdorning) topshirig'ini bajarish tufayli Bankka nisbatan mulkiy/nomulkiy sanksiyalar qo'llanilsa, Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) Bankka nisbatan qo'llanilgan sanksiyalar natijasida kelib chiqqan zararni qoplab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

15-§. Yakuniy qoidalar

75. Mazkur Shartnoma taraflar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) o'z zimmasiga olgan barcha majburiyatlarni to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

76. Agar qonunchilikka o'zgartirish kiritilishi natijasida ushbu Shartnomaning ayrim qoidalari O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq bo'lmay qolsa, bu holat Shartnoma boshqa qoidalarining bajarilishiga ta'sir qilmaydi va eng qisqa vaqt ichida o'zgargan qoidalar mazmunan eng yaqin bo'lgan boshqa qoidalar bilan almashtiriladi.

77. Taraflarning har biri mazkur Shartnomaning mavzusi va shartlari bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarning qat'iy maxfiyligini saqlash hamda ushbu ma'lumotlarning oshkor qilinishidan himoyalash uchun barcha choralarni ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Bunday axborotni uchinchi shaxsga topshirish (e'lon qilish, oshkor qilish) faqat O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan hollarda yoki boshqa tarafning yozma roziligi bilan mumkin bo'ladi.

Qarzdor/mijoz (birgalikda qarzdor) ushbu bilan mazkur Shartnoma va ipoteka shartnomasi mavzusi va shartlari bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni (hujjatlarni) "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatiga zarur hollarda taqdim qilishga rozilik bildiradi.

78. Ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan bir taraflama voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

79. Bank o'z xohishiga ko'ra Qarzdorga/mijozga (birgalikda qarzdorga) nisbatan ushbu Shartnomada mavjud bo'lgan huquqlarini qo'llashi yoki qo'llamasligi mumkin. Bank tomonidan ushbu huquqlarni qo'llamaslik yoki qisman qo'llash ushbu huquqlardan voz kechishni anglatmaydi va ular keyinchalik istalgan vaqtda qo'llanilishi mumkin.

80. Ushbu Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtiriladi, Qarzdor/mijoz, birgalikda qarzdor va Bank tomonidan imzolanadi.

Mazkur Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar uning ajralmas qismi hisoblanadi.

81. Mazkur Shartnomada ko'zda tutilmagan holatlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari qoidalari qo'llaniladi.

82. Mazkur Shartnoma har biri bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan, har bir taraf uchun bittadan 3 nusxada tuzildi.

16-§. Taraflarning pochta manzillari va rekvizitlari

Bank:

Manzili: _____

Tel.: _____

STIR: _____

Bank kodi: _____

Bank hisobvarag'i: _____

Boshqaruvchi (boshliq): _____

Muhr

Birgalikda qarzdor:

Manzili: _____

Telefon: _____

JSHSHIR: _____

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari:

Imzo:

Qarzdor/mijoz:

Manzili: _____

Telefon: _____

JSHSHIR: _____

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari:

Imzo: